

**TOG'LI HUDUDLARDA HARAKATLANAYOTGAN, HALOKATLI HOLATGA
TUSHGAN AVTOMOBILNING XAVFSIZLIKKA TA'MINLASH.**

Umirov Yunus Bekbutayevich

*O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Kichik mutaxassislar tayyorlash markazi
texnik tayyorgarlik sikli katta yo'riqchisi, I-darajali serjant.*

Maxkamov Furkatbek Kurbonboyevich

*O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Kichik mutaxassislar tayyorlash markazi
o'quv jarayon ta'minlash vazvodi katta yo'riqchisi-xaydovchi, II-darajali serjant.*


Anotatsiya: Avtomobil qiyalikdan pastga harakat qilganda uning tormoz tizimida nosozlik paydo bo'lsa avtomobilni to'xtatish uchun tog'li yo'llarda avtomobillarni to'xtatish uchun maxsus falokatli holatlar uchun kirish yo'llari o'rnatiladi bu yo'l qurilmalari qaerda qancha masofada o'rnatilish kerakligini ushbu maqolada aniqlab ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: avtomobil, tormozlash, qiyalik, tog'li yo'llar.

Mamlakatimiz iqtisodining jadal rivojlanishi avtomobil transportida yuk va yo'lovchi tashish jarayoniga keng imkoniyatlar yaratib berish bilan bir qatorda mamlakatimiz yo'llarida transport oqimining murakablashishi, buning natijasida yo'l-transport hodisalarining soninning ko'payishiga ham sabab bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Davlat yo'l harakati xizmati hisobotiga ko'ra O'zbekistonda har yil yo'l-transport xodisasi oqibatida, o'rtacha hisobda 2 mingdan ziyod odam haloq bo'ladi va 10 mingdan ziyod odam tan jarohati oladi.

Respublikamizdagi tog'li xududlardagi yo'l sharoitlari xam xarakat xavfsizligiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Jumladan yo'llardagi keskin burilishlar, katta qiyaliklar va ulardagi ko'rishni yomonlashuvi va x.k. Bunday sharoitlarda xarakatlanish xaydovchidan katta tajriba va ko'nikma talab qiladi.



Avtomobil qiyalikdan pastga harakat qilganda uning tormoz tizimida nosozlik paydo bo'lsa avtomobilni to'xtatish uchun tog'li yo'llarda avtomobillarni to'xtatish

uchun maxsus “Lovushkalar” o’rnataladi lekin bu yo’l qurilmalari qaerda qancha masofada o’rnatalishi kerakligi bo'yicha qo'llanmalar yaratilmaganligi sababli bu maqolada shu masalani hal etishning bir necha usullaridan biri bo'lgan matematik model yordamida turli qiyaliklar uchun yo'l qurilmalarini

“Lovushka”ni o’rnatish masofalarini aniqlash bo'yicha olib borilgan xisoblash natijalari keltirilmoqda. Bunda xisoblash ishlari avtomobil qiyalikda tormoz tizimi ishdan chiqqan xolat uchun, dvigatel transmissiyadan ajratilgan xolat uchun va unga ta'sir etayotgan rasmida keltirilgan kuchlar xolati uchun olib borildi.

1 rasm: Transmissiyani divigateldan ajratilgan hol uchun ta'sir etuvchi kuchlar

P_v – avtomobilga ta'sir etuvchi havoning qarshilik kuchi:


P_{j_a} – avtomobilning tezlanishga qarshilik kuchi (inersiya kuchi):

P_p – avtomobilning balandlikka chiqishga qarshilik kuchi:

P_f – avtomobil g'ildiragining g'ildirashga qarshilik kuchi

1-rasmdan foydalanib ko'rileyotgan holat uchun harakat tenglamasini tuzsak u quydag'i ko'rinishda bo'ladi: $P_p - P_{j_a} - P_f - P_v = 0$

Tenglamadan ko'rinalidiki faqatgina P_p (harakatga keltiruvchi kuch) avtomobilning tezlashishiga olib keladi. qolgan kuchlar esa uni sekilashtirishga harakat qiladi. Bu kuchlarni hisoblash uchun avtomobilning falokatli vaziyatdagi tezligini $V = 10 \text{ m/s}$ qabul qilaylik. qiyalik burchagini $3^\circ \leq a \leq 10^\circ$ oraliqda olamiz burchakni 0.1° қадам bilan hisoblaymiz. Avtomobilga ta'sir etuvchi kuchlarning koeffitsientlarini tegishli jadvallardan yo'l sharoitlariga qarab tanlab olamiz. Shundan so'ng hisob ishlarini olib borish uchun berilgan ma'lumotlarni MATLAB dasturiga kiritamiz:



Olingan natijalardan ko'rinalidiki qiyalik burchagi yuqori bo'lgan sari avtomobilni to'xtatish qurilmasi “Lovushkani” o’rnatish masofasi kamayib boradi. Keyingi bosqichda dvigateli transmissiyaga ulangan xolati uchun xisoblash ishlari olib boriladi va turli avtomobillar uchun tog' yo'llarida maxsus yo'l qurilmalari “Lovushka”larni o’rnatish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. S.M.Qodirov, M.O. Qodirxonov - Dvigatel va avtomobillar nazariyasi. Toshkent “O'qituvchi” 1981-286 s.

2. Khusanjonov, A. S. O., & Nosirjonov, S. I. O. (2021). Theoretical foundations of the acceleration slip regulation system. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(9), 618-623.

3. Abdukhaliqovich I. I., Obloyorovich M. H. Support for vehicle maintenance //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). – 2020. – T. 9. – №. 6. – C. 165-171.